

Journal of New Century Innovations

VOLUME

16

ISSUE-2



Journal of new
century innovations

Exact and natural sciences

Pedagogical
sciences

Social sciences
and humanities

Engineering and
Medical Sciences

AREAS

ISSN (p): 2181-3671
ISSN (e): 2181-368X



newjournal.org



**JOURNAL OF NEW CENTURY
INNOVATIONS**

VOLUME - 16 | ISSUE - 2

NOVEMBER - 2022



SITRUS OQQANOTINING ZARARI HAQIDA UMUMIY TAHLIL

Vahhobov U.Z - Termiz agrotexnologiyalari va innovatsion rivojlanish instituti magistranti

Akbutayev A.N - Termiz agrotexnologiyalari va innovatsion rivojlanish instituti katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada sitrus oqqanoti hashorotining zarari, ularning biologiyasi tur tarkibi, bioekologiyasi hamda morfologiyasi haqidagi ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so`zlar : oqqanot, zararkunanda, qarshi kurashish, hashorot

Kirish. Oqqanot turlari, ularning tarqalishi, bioekologiyasi va rivojlanish xususiyatlari dunyo qishloq xo`jaligi sohasida etishtirilayotgan barcha ekinlarning 800 dan ortiq asosiy turli turdagi xavfli zararkunanda hasharotlar zararlaydi va ularga qarshi har yili juda katta mablag` va ishchi kuchi sarflanadi. Ushbu zararkunandalarni chuqur o`rganish va ilmiy asosida tadqiq etib ular miqdorini boshqarish bo`yicha olimlarning ko`p yillik izlanishlari mavjud. Hozirda yer yuzida Aleyrodidae (oqqanotlar) oilasiga mansub hasharotlar Martin & Mound (1987) ma`lumotiga ko`ra 126 oilaga mansub 1156 tur mavjudligini qayd qilgan. Keyinchalik Aleyrodidae (Hemiptera) oilasiga mansub hasharotlarni o`rganish jarayonida Gregory A. Evans (2007) 166 oila, 3 ta kenja oilaga oid (Aleurodicinae, Aleyrodinae, Udamosellinae) 1551 tur mavjudligini ta`kidlaydi va turlarni bir biridan ajratishda ularning morfologik jihati katta ahamiyatga egaligini ko`rsatgan.

Tadqiqot maqsadi. Issiqxonada sitrus oqqanotining umumiy rivojlanish biologiyasini o`rganish va umumiy monitoringini amalga oshirish.

Zarari. O`simliklarni zararlashda asosan lichinkalarining zarari katta bo`ladi. Oqqanotdan lichinkalaridan ajralib chiqqan ekskrementlar o`simlik barglarini va ularning mevalarini ifloslantiradi. Keyinchalik esa ushbu joyda turli hil zambrug`lar rivojlanishiga olib keladi va o`simlik kasallanadi. Natijada o`simliklarda fotosintez jarayoni buzilib, ayrim hollarda o`simlik nobud bo`lishi kuzatiladi. Issiqxona oqqanoti tropik tur bo`lib, asosan himoyalangan maydonda erta bahordan kech kuzgacha rivojlanadi. O`zbekiston sharoitida ochiq maydonda ham tarqalib ituzumdoshlar va qovoqdoshlar oilasi vakillarini kuchli zararlaydi



1-rasm.Oqqanotning tuxumlari va nimfalik davri.

Oqqanotning o`simliklarga zararidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni ishlab chiqdik:

-Issiqxonada sitrus oqqanotining umumiy rivojlanish biologiyasini o`rganish va umumiy monitoringini amalga oshirish;

- Issiqxona ekinlarining o`sv davrlarida sitrus oqqanotining zararini aniqlash va iqtisodiy zarar mezonini belgilash ;

- Oqqanotning tabiiy kushandalarini va parazitlarini samaradorligini o`rganish;

Tadqiqodning ob`ekti. Sitrus oqqanoti

Tadqiqodning predmeti. Sitrus oqqanotiga qarshi kurashishda yangi innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish

Tadqiqotning uslublari. Zararlangan o`simlikdan namunalar olishda N.A.Naimov(1937), V.E.Kazlov (1954) va boshqa metodlar orqali metodlar asosida olib boriladi.

Natijalar:Tajribada qo`yilgan E. formosa turi issiqxona oqqanoti bilan o`zaror parazit-xo`jayin munosabatlarining shakllanishi tadqiq etildi. Ushbu tadqiqotda oqqanot rivojlanishi uchun o`rtacha havo harorati (+28oS) va nisbiy havo namligi (65%) o`rganib borildi. Mavsumda asosan oqqanotning populyasiya miqdori ma`lum darajaga yetib, borganda tadqiqotlar olib borildi. Tajribada havo harorati may oyida o`rtacha +26oS ni tashkil etdi. Bu davrda enkarziyaning ko`payishi jadallashdi va bitta bargda o`rtacha lichinka 12,6 dona, g`umbagi 12,3 donani tashkil etdi. Yetuk zot enkarziyalar miqdori esa o`rtacha 15,4 donani ko`rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. “O`zbekiston Respublikasida meva sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida” gi farmoni “Xalq so`zi” gazetasi 2018 y. 30 mart. 1 b.
2. Mirziyoev SH.M. 2017 yil 9 dekabrda qishloq xo`jaligi xodimlari kuniga bag`ishlangan agrar soha vakillarining respublikamiz mirishkor dehqonlari, fermerlari va soha xodimlariga murojaati // Q/x jurnali-Toshkent.№1.2018. B. 4-6.
3. Adashkevich B.P., SHiyko E. Razvedenie i xranenie entomofagov.-Tashkent: Uzbekistan, 1983.–S. 47-62.

CHORVA HAYVONLARI GO'NGI BIOGAZINI STIRLING DVIKATELIGA
QO'LLAB ELEKTR ENERGIYASI OLIISH ISTIQBOLLARI

Murodov Muzaffar Habibullayevich - T.f.n
Murodov Rivojiddin Nabijon o'g'li - Stajyor-o'qituvchi
Qurvonboyev Botirjon Isroiljon o'g'li - Magistr
Namangan muhandislik qurilish instituti
rivojiddinmurodov015@gmail.com
+99894 154 64 61

Annotatsiya. Hozirgi kunda an'anaviy usulda olinayotgan energiya resurslarining narxlarining olish borishi va ularning zaxilarining tugab borishi yangicha turdagi noan'anaviy turdagi energiya manbaiga talabni oshiradi. Biogaz-chorva fermer xo'jaligidagi chorva hayvonlari chiqindilarini utilizatsiyasini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda Stirling dvigateli yordamida biogaz energiyasini mexanik energiyaga osonlik bilan ozgartirishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: biogas, stirling digatel, utilizatsiya, chorvachilik, kompost.

PROSPECTS OF ELECTRICAL ENERGY PRODUCTION USING ANIMAL
MANURE BIOGAS TO STIRLING ENGINE

T.f.n Murodov Muzaffar Khabibullaevich
Trainee-teacher Murodov Rivojiddin Nabijon ugli
Master Qurvonboev Botirjon Isroiljon ugli
(+99894 154 64 61 rivojiddinmurodov015@gmail.com)

Anatation. Currently, the rising prices of energy resources obtained by traditional methods and the exhaustion of their reserves increase the demand for a new type of non-traditional type of energy source. Biogas-cattle provides waste disposal of livestock on the farm. Alternatively, we can easily convert biogas energy into mechanical energy using a Stirling engine.

Keywords: biogas, stirling digatel, disposal, animal husbandry, compost.


Biogazdan foydalanish elektr energiya ishlab chiqarish uchun muqobil bo'lishi mumkin, ayniqsa elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlashning an'anaviy markazlaridan uzoqda joylashgan hududlarda, masalan: qishloq xo'jaligi va chorvachilik bilan shug'ullanadigan yerlarda Ushbu potentsialni isbotlash uchun ushbu ishda chorva qoldiqlarini biologik hazm qilishdan markazlashtirilmagan biogaz ishlab chiqarish tizimi va undan Stirling dvigateli yordamida elektr energiya ishlab chiqarish uchun foydalanish baholanadi.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavotirlar hamda energiya resurslarining kamayib ketish darajasi yangi energiya siyosati zarurligini ko'rsatdi. Ulardan biri 2040 yilga borib 40443 TVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarishni atigi 50% qazib olinadigan yoqilg'ilarga [1] yetkazishdir, bu esa hozirgi vaqtda global elektr energiyasining 88% qazib olinadigan yoqilg'iga asoslangan bu ko'rsatkichni 38% ga pasaytirish deganidir. Ushbu prognozga erishish uchun dunyo energetika matritsasidagi qazib olinadigan yoqilg'iga qaramlikni kamaytiradigan strategiyalar va texnologiyalarni o'rganish kerak va bu borada qayta tiklanadigan energiya manbalarga bo'lgan e'tibor berish muhim rol o'ynaydi[2].

Hozirda qazib olinadigan energiya resurslarining toboro kamayib borayotganini inobatga olinsa har qanday muqobil turdagi energiyadan foydalanish samarali deb qaraladi. Yurtimizda bioenergiyaning yirik ishlab chiqaruvchisi va iste'molchisi bo'lishi mumkin bo'lgan hududlar yetarlicha[3].

Chorvachilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklarida biogazga asoslangan stirling dvigatellaridan foydalanish energiya hosil qilishning samarali usuli bo'lishi mumkin[4].

Hozirgi vaqtda qayta tiklanadigan energiya manbalari mamlakat energiya matritsasining taxminan 1% ni tashkil qiladi. Jahon miqosidagi qayta tiklanadigan energiya resurslaridan foydalaning darajasiga solishtirganda bu ko'rsatkich sezilarli darajada kamligini bilishimiz mumkin. Bundan tashqari, so'nggi paytlarda qayta tiklanadigan energiya manbalardan foydalangan holda energiya ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha respublikamiz ilmiy izlanuvchilarning tadqiqotlari faollashdi.



1-rasm. Chorva mollari go'ngi biogazini stirling dvigateliga qo'llab elektr energiyasi olish.

Bunday tadqiqotlar uchun mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini va har bir mintaqaning energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini tushunish muhimdir. 1-rasmda ko'rsatilgan biogazda ishlaydigan stirling motor yurtimiz hududida asosan qishloq

joylarda tashkil qilishga mo'ljallangan. Bu magistral elektr uzatish liniyalariga energiya uzatmaydi, chunki bunday turdagi energiya manbalaridan uncha yuqori bo'lmagan energiya ishlab chiqariladi. Bu texnologiya asosan uzoqda joylashgan qishloq hududlarda, uy-ro'zg'or ishlari, shuningdek, qishloq xo'jaligida foydalanish, masalan, yetishtirish, sug'orish va hosilni qayta ishlash uchun energiya talab qilinadigan joylarga o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu qishloq sharoitida quyosh, shamol va suv energiyasidan foydalanishdan tashqari, energiya ishlab chiqarish uchun biogazdan foydalanishni o'rganish mumkin. Energiyaning qiymati va saqlash imkoniyati mavjudligi tufayli katta o'sish salohiyatini taqdim etadi. Biogaz organik moddalarning anaerob bakteriyalar tomonidan parchalanishi natijasida hosil bo'lgan yoqilg'i bo'lib, u tabiiy ravishda kompost uyumlarida yoki anaerob parchalanuvchilarda paydo bo'ladi ([2,3]). Odatda metan gazi (CH_4), vodorod sulfidi (H_2S), karbonat angidrid (CO_2), oz miqdorda azot (N_2), vodorod (H_2) va suv bug'i (H_2O) [14] dan iborat bo'ladi va o'z navbatida uning tarkibi ishlatiladigan organik moddalarga qarab o'zgaradi.

Demak, ushbu yoqilg'ining ishlab chiqarilishi hayvonlar, oziq-ovqat mahsulotlari va hatto urbanizatsiya natijasida paydo bo'lgan qattiq maishiy chiqindilardan samarali foydalanish imkonini beradi, bu esa dunyoda aholi va o'zlashtirilayotgan yerlarning ko'payishi bilan ortib borayotgan utilizatsiya jazayonlariga qo'shinchilik bo'ladi ([5,6]). Bundan tashqari, biogaz qazib olinadigan yoqilg'iga turlari tannarxlarining asoslangan narxlarning o'sishi, yoqilg'iga umumiy talabning davom etishi va qayta tiklanadigan energiya manbalariga qiziqishning ortishi sharoitida iqtisodiy jihatdan samarali yechimdir [7]. Bundan tashqari, uni ishlatish qaysi mintaqada joylashganiga va iqlim mavsumlariga bog'liq emas [8], faqat organik chiqindilarning anaerob parchalanishiga bog'liq bo'lib, ayniqsa yirik yoqilg'i va elektr ta'minoti markazlaridan uzoqda joylashgan hududlar uchun foydalidir.

Elektr ishlab chiqarish uchun Stirling dvigatellaridan foydalanish hamda yoqilg'i sifatida chorva mollarining go'ngidan foydalaning samarali usullardan biri bo'lishi mumkin. Shunday qilib, tizimning ishlashi uchun zarur bo'lgan hayvonlarning soni 10 dona bo'lganda, ulardan yillik ajrab chiqadigan go'ng miqdori 7.3 tonnani tashqil qiladi. Bunday miqdordagi energiya resursdan honadon energiya istemolining 15% ini qoplash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. IE agentligi. World Energy Outlook 2018. World Energy Outlook: OECD; 2018.
2. Юсупов, Одил. "СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ НАЛОГОВОЙ СЛУЖБЫ." *Архив научных исследований* 4.1 (2022).

3. Habibullayevich, Murodov Muzaffar, Murodov Rivojiddin Nabijon o'gli, and Abduraimov Muzaffar Rustamjon o'g'li. "QUYOSH ENERGETIK QURILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KOMBINATSIYALASHGAN TERMOFOTOELEKTRIK QURILMA." *Conferencea* (2022): 371-375.
4. Adhamjon o'g, Talaba Abdullayev Azimjon. "QUSHOSH PANELLARINI JOYLASHTIRISHDA IKKI BURCHAKLI USULDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI." *E Conference Zone*. 2022.
5. Murodov Muzaffar Xabibullayevich. Qishloq xo'jaligi irrigatsiya tizimlarida eneretika muammolari va sohada tashqi yonuv dvigatellarini qo'llash samaradorligi, Monografiya, 2021.
6. Murodov, Muzaffar Khabibullaevich, and Abdushokhid Bakhromzhanovich Mamajanov. "Development of a combined solar bioenergy plant for disposal of household waste." *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)* 9.11 (2020): 203-210.
7. Даминов, Акмал Акбралиевич, and Нуриддин Махамдалиевич Махмудов. "Теплопроводность композитного синтетического алмаза." *Science Time* 6 (18) (2015): 144-146.
8. Юсупов, Одил. "СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ НАЛОГОВОЙ СЛУЖБЫ." *Архив научных исследований* 4.1 (2022).

ISKANDAR ZULQARNAYNING HINDISTONGA QILGAN YURISHI

Davronov Ulug'bek – Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Yusupov Shahzodbek Bahodirovich – Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Makedoniya armiyasining jang olib borish usullari va harbiy san'ati xaqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga harbiy san'at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Hind daryosi, Gidasp daryosi, jang, otliqlar, jangovar fillar, jangovar tartib, Makedoniya falangasi, Iskandar armiyasi, Vavilon.

M.a. 327 yilda Makedoniya armiyasi Hindistonga yo'l oldi. Mashaqqatli safar va O'rta Osiyo qabilalarining ko'rsatgan qattiq qarshiliklari armiyaning ahvolini og'irlashtirib yuborgan edi. Unda Spitamen boshchiligida O'rta Osiyoliklar Palitomet daryosi buyida Aleksandr qo'shinini kichik bir bo'limini pistrmaga tushurib yakson qilgan edi. Natijada armiyaning ichida oppozitsiya guruhi shakllanib, u Iskandarning bosqinchilik rejalariga qarshilik ko'rsata boshladi. Bu armiyaga yomon ta'sir ko'rsatdi va intizomga putur etkazdi. Shunga qaramay Hindistonga qilingan yurishning birinchi davri Makedoniya armiyasiga oz bo'lsada muvaffaqiyat keltirdi. Birinchi navbatda bu hol Hindiston podsholari Taksil va Porning o'zaro dushmanliklari bilan bog'liq bo'ldi.

Makedoniya armiyasi Qobuldan hind daryosiga ikkita kolonnada harakatlandi. Baqtriyadan chiqqandan keyin 16 sutka o'tgach Makedoniya armiyasi hind daryosining o'ng qirg'og'ida jamlandi. Iskandarga ittifoqchi bo'lib olgan Taksilning ko'magida Makedoniya armiyasi hind daryosidan o'tdi, uning safiga 5 ming Hindistonlik jangchi qo'shildi.

Hindiston podshosi Por qarshilik ko'rsatishga hozirlik ko'ra boshladi. U Gidasp daryosi bo'yiga qudratli armiyani, 30 ming atrofida piyodalarni, 3–4 ming chavandozni, 300 ta jangovar arava va 200 ta fillarni to'pladi. Makedoniya armiyasi o'zining ittifoqchilari bilan birga 30 ming kishiga ega bo'lib, ulardan 6 ming og'ir piyodalarni va 5 ming otliqlarni tashkil etdi.

Por armiyasi Gidasp daryosining chap qirg'og'ida, o'z lagerining to'g'risida turgan Makedoniya armiyasining yo'lini to'sdi.

O‘z harakatlarini dushmandan niqoblab, tunda kuchli yomg‘ir paytida Makedoniya armiyasi kemalarda va meshlarda Gidasp daryosini oqimi bo‘ylab 14 kilometr quyidan kechib o‘ta boshladi. Tongda katta qiyinchiliklar bilan kechiv uchun joy topishga muvaffaq bo‘lindi va u yerdan 5 ming makedoniyaliklarning otliqlari va 6 ming piyodalari kechib o‘tdilar.

Makedoniyaliklarning yaqinlashuviga ishonch hosil qilgan Por, o‘z qo‘shinlarini ularga qarshi qo‘ydi. Hindlarning jangovar tartiblari ikkita chiziqdan iborat bo‘ldi: birinchi chiziqda jangovar fillar, ikkinchi chiziqda piyodalar joylashtirildi; piyodalarning bir qismi fillarning oraliqlaridagi intervallarda joylashtirilib, ular jangovar tartibning tayanchi hisoblandi. Piyodalarning ikki yon tomonlarida otliqlar turdi, ularning old tomonlarida, ikkala tomondan jangovar aravalar o‘rin oldi.

Iskandar dushmanning jangovar tartibining markazi kuchaytirilganini ko‘rganidan keyin, o‘zining otliqlar bo‘yicha ustunligidan foydalanishga qaror qildi. Bosh zarbani u hindlarning chap qanotiga berishni ko‘zladi, buning uchun otliqlarning bir qismini o‘z qo‘mondonligi ostida dushmanning chap qanoti ro‘parasida jamladi. Qolgan otliqlar hindlarning jangovar tartibining o‘ng qanotiga qarshi yo‘naltirildi. Makedoniyaning og‘ir piyodalar falangasi faqat dushmanning jangovar tartibi to‘zib ketgandagina unga qarshi hujum boshlash buyrug‘ini oldi.

Jangni Iskandarning otliqlari boshladi. Hindlarning chap qanoti front tomondan otliq kamonchilarning harakatlari bilan holdan toydirildi va ularga qanotdan otliq getayralar hujum qildi. Hindlar uloqtirib tashlandi va fillar joylashgan chiziqqa palapartish chekina boshladi. Jangga Makedoniya falangasi kiritildi.

Makedoniya piyodalari va otliqlari dushmanning jangovar tartibini buzib yuborishga muvaffaq bo‘ldilar.

Hindlarning fillari hurkib vahimaga tushib qoldi va ham makedoniyaliklarni, ham hindlarni bosib, yer bilan yakson qilib tashladi, ko‘pgina fillar ortga burilib qocha boshladi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida Iskandarning otliqlari butun jangovar chiziqni qurshab oldi, u piyodalarga imkoni boricha qalqonlarni jipslashtirib, hujumni davom ettirish buyrug‘ini berdi. Hindlarning armiyasi mag‘lubiyatga uchradi.

Dushmanni ta‘qib qilish boshlandi, Por asirga olindi va jang tugadi.

Bu g‘alabaning natijasida Por bilan ittifoq tuzildi. Lekin Makedoniya armiyasi Hindistonning ichkarisiga yurishni davom ettirishdan bosh tortdi va Iskandar ortga qaytishga majbur bo‘ldi.

Hind daryosi bo‘ylab kemalarda to‘qqiz oy suzib, uning quyilish joyiga kelgan va safi ozayib ketgan Iskandar armiyasi ikki qismga bo‘lindi: birinchisi dengizdan

Dajlaning quyilish joyi tomon suzib ketdi, ikkinchisini esa Iskandarning o‘zi Gedroziya (Janubiy Pokistonning hududi) cho‘li orqali boshlab ketdi, bu yerlarda armiyaning bir qismi qirilib ketdi.

M.a. 325 yilda, Makedoniya armiyasining qolganqutganlari, bosib olingan hududlarning poytaxti hisoblangan Vavilonga qaytib keldi. Bu yerda Iskandar m.a. 323 yilda olamdan o‘tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Razin E.A. Istoriya voennogo iskusstva. 1994.
2. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issuc 2, Feb. (2022). AT THE SAME TIME, SPITAMEN’S CAVALRY WAS THROWN INTO THE RIVER, AND AN ATTEMPT WAS MADE TO HIDE ON ONE OF THE ISLANDS IN THE MIDDLE OF THE RIVER Mamajonov Soyibjon Xalilovich.
3. Raxmonaliev R. Imperiya Tyurkov. Moskva: «Progress» 2002.
4. Harbiy tarix san’ati, darslik H.Dadaboev. Toshkent 2013.
5. Harbiy tarix, darslik S.Mamajonov. Toshkent 2021.
6. Zien journal of Social Sciences and Humanities ISSN (Online): 2769-996X SJIF Impact Factor (2021): 5.104. Sultan Jalaliddin Manguberdi’s Struggle against the Mongolia Invasion. 80-81.

MAKEDONIYALIK ISKANDARNING HINDISTONGA QILGAN YURISHI

Uzakov Abduvali Ortiqovich

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi;

Axunov Ilxom Ibragimovich

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi;

Alijonov Baxtiyor Xoshimovich

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Makedoniya armiyasining jang olib borish usullari va harbiy san'ati xaqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga harbiy san'at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Hind daryosi, Gidasp daryosi, jang, otliqlar, jangovar fillar, jangovar tartib, Makedoniya falangasi, Iskandar armiyasi, Vavilon.

M.a. 327 yilda Makedoniya armiyasi Hindistonga yo'l oldi. Mashaqqatli safar va O'rta Osiyo qabilalarining ko'rsatgan qattiq qarshiliklari armiyaning ahvolini og'irlashtirib yuborgan edi. Unda Spitamen boshchiligida O'rta Osiyoliklar Palitomet daryosi buyida Aleksandr qo'shinini kichik bir bo'limini pistrmaga tushurib yakson qilgan edi. Natijada armiyaning ichida oppozitsiya guruhi shakllanib, u Iskandarning bosqinchilik rejalariga qarshilik ko'rsata boshladi. Bu armiyaga yomon ta'sir ko'rsatdi va intizomga putur etkazdi. Shunga qaramay Hindistonga qilingan yurishning birinchi davri Makedoniya armiyasiga oz bo'lsada muvaffaqiyat keltirdi. Birinchi navbatda bu hol Hindiston podsholari Taksil va Porning o'zaro dushmanliklari bilan bog'liq bo'ldi.

Makedoniya armiyasi Qobuldan hind daryosiga ikkita kolonnada harakatlandi. Baqtriyadan chiqqandan keyin 16 sutka o'tgach Makedoniya armiyasi hind daryosining o'ng qirg'og'ida jamlandi. Iskandarga ittifoqchi bo'lib olgan Taksilning ko'magida Makedoniya armiyasi hind daryosidan o'tdi, uning safiga 5 ming Hindistonlik jangchi qo'shildi.

Hindiston podshosi Por qarshilik ko'rsatishga hozirlik ko'ra boshladi. U Gidasp daryosi bo'yiga qudratli armiyani, 30 ming atrofida piyodalarni, 3–4 ming chavandozni, 300 ta jangovar arava va 200 ta fillarni to'pladi. Makedoniya armiyasi o'zining ittifoqchilari bilan birga 30 ming kishiga ega bo'lib, ulardan 6 ming og'ir piyodalarni va 5 ming otliqlarni tashkil etdi.

Por armiyasi Gidasp daryosining chap qirg'og'ida, o'z lagerining to'g'risida turgan Makedoniya armiyasining yo'lini to'sdi.

O'z harakatlarini dushmandan niqoblab, tunda kuchli yomg'ir paytida Makedoniya armiyasi kemalarda va meshlarda Gidasp daryosini oqimi bo'ylab 14 kilometr quyidan kechib o'ta boshladi. Tongda katta qiyinchiliklar bilan kechiv uchun joy topishga muvaffaq bo'lindi va u yerdan 5 ming makedoniyaliklarning otliqlari va 6 ming piyodalari kechib o'tdilar.

Makedoniyaliklarning yaqinlashuviga ishonch hosil qilgan Por, o'z qo'shinlarini ularga qarshi qo'ydi. Hindlarning jangovar tartiblari ikkita chiziqdan iborat bo'ldi: birinchi chiziqda jangovar fillar, ikkinchi chiziqda piyodalar joylashtirildi; piyodalarning bir qismi fillarning oraliqlaridagi intervallarda joylashtirilib, ular jangovar tartibning tayanchi hisoblandi. Piyodalarning ikki yon tomonlarida otliqlar turdi, ularning old tomonlarida, ikkala tomondan jangovar aravalar o'rin oldi.

Iskandar dushmanning jangovar tartibining markazi kuchaytirilganini ko'rganidan keyin, o'zining otliqlar bo'yicha ustunligidan foydalanishga qaror qildi. Bosh zarbani u hindlarning chap qanotiga berishni ko'zladi, buning uchun otliqlarning bir qismini o'z qo'mondonligi ostida dushmanning chap qanoti ro'parasida jamladi. Qolgan otliqlar hindlarning jangovar tartibining o'ng qanotiga qarshi yo'naltirildi. Makedoniyaning og'ir piyodalar falangasi faqat dushmanning jangovar tartibi to'zib ketgandagina unga qarshi hujum boshlash buyrug'ini oldi.

Jangni Iskandarning otliqlari boshladi. Hindlarning chap qanoti front tomondan otliq kamonchilarning harakatlari bilan holdan toydirildi va ularga qanotdan otliq getayralar hujum qildi. Hindlar uloqtirib tashlandi va fillar joylashgan chiziqqa palapartish chekina boshladi. Jangga Makedoniya falangasi kiritildi.

Makedoniya piyodalari va otliqlari dushmanning jangovar tartibini buzib yuborishga muvaffaq bo'ldilar.

Hindlarning fillari hurkib vahimaga tushib qoldi va ham makedoniyaliklarni, ham hindlarni bosib, yer bilan yakson qilib tashladi, ko'pgina fillar ortga burilib qocha boshladi. Shu bilan bir vaqtning o'zida Iskandarning otliqlari butun jangovar chiziqni qurshab oldi, u piyodalarga imkoni boricha qalqonlarni jipslashtirib, hujumni davom ettirish buyrug'ini berdi. Hindlarning armiyasi mag'lubiyatga uchradi.

Dushmanni ta'qib qilish boshlandi, Por asirga olindi va jang tugadi.

Bu g'alabaning natijasida Por bilan ittifoq tuzildi. Lekin Makedoniya armiyasi Hindistonning ichkarisiga yurishni davom ettirishdan bosh tortdi va Iskandar ortga qaytishga majbur bo'ldi.

Hind daryosi bo‘ylab kemalarda to‘qqiz oy suzib, uning quyilish joyiga kelgan va safi ozayib ketgan Iskandar armiyasi ikki qismga bo‘lindi: birinchisi dengizdan Dajlaning quyilish joyi tomon suzib ketdi, ikkinchisini esa Iskandarning o‘zi Gedroziya (Janubiy Pokistonning hududi) cho‘li orqali boshlab ketdi, bu yerlarda armiyaning bir qismi qirilib ketdi.

M.a. 325 yilda, Makedoniya armiyasining qolganqutganlari, bosib olingan hududlarning poytaxti hisoblangan Vavilonga qaytib keldi. Bu yerda Iskandar m.a. 323 yilda olamdan o‘tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Razin E.A. Istoriya voennogo iskusstva. 1994.
2. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issuc 2, Feb. (2022). AT THE SAME TIME, SPITAMEN’S CAVALRY WAS THROWN INTO THE RIVER, AND AN ATTEMPT WAS MADE TO HIDE ON ONE OF THE ISLANDS IN THE MIDDLE OF THE RIVER Mamajonov Soyibjon Xalilovich.
3. Raxmonaliev R. Imperiya Tyurkov. Moskva: «Progress» 2002.
4. Harbiy tarix san’ati, darslik H.Dadaboev. Toshkent 2013.
5. Harbiy tarix, darslik S.Mamajonov. Toshkent 2021.
6. Zien journal of Social Sciences and Humanities ISSN (Online): 2769-996X SJIF Impact Factor (2021): 5.104. Sultan Jalaliddin Manguberdi’s Struggle against the Mongolia Invasion. 80-81.

**TA'LIM KLASTERI MUHITIDA MAKTABGACHA TA'LIM
TASHKILOTLARI TARBIYACHI KASBIY KOMPENENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI
KUCHAYTIRISHGA OID TAVSIYALAR**

Muminova Munajat Yuldashevna

Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti

Ta'lim muassasining boshqaruv yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqola, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy komponentligini shakllantirish, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish hamda ushbu jarayonda ta'lim klasterini ahamiyati to'g'risida yoritildi.

Kalit so'zlar: normativ, ilmiy, nazariy va uslubiy, psixologik tayyorlash va qayta tayyorlash, sezgi, ilhom, topqirlik va zukkolik, klaster metodi, kommunikativ kompetentsiya...

Annotation: This article focused on the formation of the professional component of educators of the preschool educational organization, the effective organization of training, and the importance of the educational cluster in this process.

Key words: normative, scientific, theoretical and methodological, psychological training and retraining, intuition, inspiration, ingenuity and ingenuity, cluster method, communicative competence...

Аннотация: В данной статье речь шла о формировании профессиональной составляющей воспитателей дошкольной образовательной организации, эффективной организации обучения, а также о значении образовательного кластера в этом процессе.

Ключевые слова: нормативный, научный, теоретико-методический, психологическая подготовка и переподготовка, интуиция, инспирация, сообразительность и сообразительность, кластерный метод, коммуникативная компетентность...

Bugungi kunda kasb-hunar ta'limining muhim jihatlaridan biri jamiyatda o'zaro kelishilgan harakatlarga erishishni ta'minlaydigan kommunikativ kompetentsiyaga ega bo'lgan mutaxassisni shakllantirishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qituvchisining muhim xususiyati sifatida kommunikativ kompetentsiyaning ahamiyati bugungi kunda normativ, ilmiy, nazariy va uslubiy darajada e'lon qilingan. Shu bilan birga, pedagogik faoliyat tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha o'qituvchilar kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning zarur darajasiga mos kelmaydi. Bu maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglarini

ushbu yo'nalishda psixologik tayyorlash va qayta tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini yaratish vazifasini qo'ymoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'qituvchining ishi sezgi, ilhom, topqirlik va zukkolik bilan ajralib turadigan faoliyat sifatida tavsiflanadi. Pedagogning ijodiy faoliyati shablon bo'yicha amalga oshirilmaydi, chunki uning ajralmas tarkibiy qismlari o'ziga xoslik, klişelardan voz kechish, ajablanish, vaziyatga qarab intuitiv harakat qilish qobiliyatidir. O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi asosiy komponentlar bilan belgilanadi:

- kognitiv (mutaxassis ushbu mavzu bo'yicha nimani biladi);
- hissiy (insonning hissiy sohasiga munosabati va hissiy holatini o'zgartirish ehtiyojlariga rioya qilish)
- faoliyat (mutaxassis o'z bilimlarini amalda qanday amalga oshiradi).

Kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqdir.

- Kasbiy faoliyatda muloqot quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:
- kommunikativ, shu jumladan axborot almashinuvi;
- o'zaro hamkorlikni tashkil qilishni ta'minlovchi interaktiv;
- idrok etish va boshqa shaxsning qiyofasini shakllantirish va o'zaro ta'sirni o'rnatish jarayonini aks ettiruvchi pertseptual.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish mezonlari asosiy funktsiyalarga mos kelishi va quyidagi ko'nikmalarni aks ettirishi kerak:

- og'zaki va og'zaki bo'lmagan ma'lumotlar almashinuvini amalga oshirish, shuningdek, suhbatdoshning shaxsiy xususiyatlari va fazilatlarini diagnostika qilish qobiliyati;

- strategiya, taktika va texnikani ishlab chiqish, odamlar bilan muloqot qilish, muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga erishish uchun ularning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish qobiliyati;

- o'zini suhbatdosh bilan tanishtirish, uning o'zini aloqa sherigi tomonidan qanday qabul qilinishini va unga empatik munosabatda bo'lishini tushunish qobiliyati.

O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasining yuqori darajasi uning barcha tarkibiy qismlarini har tomonlama rivojlantirishni, virtuozlikni va muloqot qilish usullaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Kommunikativ kompetensiya - bu umumiy madaniyatni va uning kasbiy faoliyatdagi o'ziga xos ko'rinishlarini sintez qiladigan yaxlit sifatdir.

Hozirgi vaqtda nafaqat tarbiyachi, balki pedagog-tadqiqotchi, pedagog - psixolog, pedagog - texnolog talabga ega, shuning uchun maktabgacha tarbiyachining kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri uning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatidir. tarbiyalash. O'z-o'zini tarbiyalash - bu o'z-o'zini ixtiyoriy va axloqiy takomillashtirishni nazarda tutadigan, lekin ularni o'z maqsadi sifatida belgilamaydigan aqliy va mafkuraviy o'z-o'zini tarbiyalash tizimi. [12] O'z-o'zini

tarbiyalashda pedagogning ijodkorligi, motivatsiyasi, maqsadliligi va boshqa shaxsiy fazilatlari muhim o‘rin tutadi.

O‘qituvchining o‘z-o‘zini tarbiyalashi uning kasbiy faoliyatining zaruriy shartidir. Jamiyat doimo pedagog va o‘qituvchi oldiga eng yuqori talablarni qo‘ygan. Boshqalarga o‘rgatish uchun siz hammadan ko‘proq bilishingiz kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash - bu shaxsning o‘zi tomonidan boshqariladigan maqsadli kognitiv faoliyat; fan, texnika, madaniyat va h.k. ning har qanday sohasida tizimli bilimlarni egallash.

O‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni bu quyidagi faoliyatdir:

- ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi;
- ongli ravishda amalga oshiriladi;
- shaxsning o‘zi tomonidan rejalashtiriladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

O‘qituvchining o‘z-o‘zini tarbiyalash sohasidagi faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari, shakllari, usullari va usullarini o‘rganish va joriy etish; hamkasblarning darslarida qatnashish, pedagogik tajriba almashishda ishtirok etish; o‘z kasbiy faoliyatini o‘z-o‘zini tahlil qilishda; klassik va zamonaviy psixologiya va pedagogika sohasidagi bilimlarini oshirish; zamonaviy iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot voqealarini o‘rganishda; ularning bilim darajasi, huquqiy va umumiy madaniyatini oshirishda. [10, b. 18] Biroq, zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'lim tashkiloti o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini tarbiyalash masalalariga etarlicha e'tibor berilmayapti. Bu, ayniqsa, yoshi katta o‘qituvchilar uchun to‘g‘ri keladi. Ularning fikricha, ular juda katta pedagogik tajribaga ega bo‘lib, uni to‘liq o‘zlashtiradilar va amaliyotda qo‘llaydilar. Bunday o‘qituvchilar har doim ham maktabgacha ta'limga bo‘lgan yondashuvlardagi o‘zgarishlarga rioya qilmaydi. Muammolardan biri yangi professional adabiyotlarga, jumladan, ixtisoslashtirilgan pedagogik jurnallardagi nashrlarga mutlaqo qiziqishning yo‘qligi. Ayni paytda maktabgacha ta'limga oid ko‘plab uslubiy adabiyotlar nashr etilmoqda. Butun nashriyotlar ana shunday adabiyotlarni nashr etishga ixtisoslashgan. Ular orasida Sankt-Peterburgda faoliyat yurituvchi “CHILDHOOD-PRESS” nashriyoti ham bor. Ushbu nashriyotning asosiy xususiyati maktabgacha ta'limga oid adabiyotlar nashr etilishi bo‘lib, faoliyatning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha adabiyotlar chop etiladi. Nashrlar orasida "Bolalik" dasturining uslubiy majmuasini alohida ta'kidlash kerak. Hozirgi vaqtda ushbu dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlarida juda keng qo‘llanilmoqda va kelajakda, ehtimol, undan ham kengroq qo‘llaniladi. Buning sababi shundaki, ushbu dastur maktabgacha ta'lim standartining asosi bo‘lgan bolalarning shaxsiy va kommunikativ rivojlanishiga qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim sohasida bugungi kunda keng qo‘llanilishi tusgs kirgan

KLASTER metodiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Klaster metodi deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida bo'lgan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi o'qitish jarayoni davomida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar o'qib-o'rganishni yuqori darajada bo'lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirishda tashabbuskorligi va mas'uliyat, qo'llab-quvvatlash amalda bajarish orqali fikrmulohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'qitish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o'ziga hos hususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan klaster metodi talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Klaster metodi orqali talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari, ijodkorligini va faolligi nazariy va amaliy mu'ammolarga bo'lgan qarashlari rivojlanadi.

“Klaster” metodi -- erkin fikrlashning asosiy omili hisoblanadi. "Klaster" metodi talabalarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi

Shunday qilib, maktabgacha tarbiyachilarning o'z-o'zini tarbiyalash masalasida bir qator qarama-qarshiliklarni shakllantirish mumkin:

- kasbiy-pedagogik o'z-o'zini tarbiyalashni samarali amalga oshirishga qodir o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni sifatini oshirish bo'yicha jamiyatning talablari o'rtasida;

- o'qituvchilarning o'zlarining bunga muhtojligi va maktabgacha ta'lim muassasasidagi ishlarning haqiqiy holati, bu har doim ham o'qituvchilarning uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmaydi;

- pedagogik axborotlar oqimining tobora ortib borishi, pedagogika fanining yutuqlari dinamikligi va o'qituvchilarning yangiliklarni mustaqil ravishda o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari o'rtasida.

Ushbu qarama-qarshiliklardan maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash tizimini rivojlantirish muammosi kelib chiqadi.

Umuman olganda, o'qituvchining kommunikativ kompetentsiyasini shaxsning o'z qobiliyatlari va qobiliyatlari doirasida professional muhitda va jamiyatda muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan boshqalar bilan o'zaro munosabatlarning shaxsiy va kasbiy tajribasini shakllantirishning ma'lum darajasi sifatida tavsiflash mumkin. ijtimoiy maqom.

O'qituvchining kommunikativ kompetentsiyasini tashkil etuvchi ko'nikmalar majmuasi kommunikativ vaziyatni tahlil qilish va baholash, maqsad qo'yish, rejani amalga oshirish va uni tuzatish vositalarini tanlash va ishlatish, natijaning

samaradorligini baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. to'liq huquqli kommunikativ akti ishlab chiqarish uchun; vaziyatga adekvat aloqa strategiyalarini tanlash qobiliyati, odamlarning jinsi va yoshi, ijtimoiy-madaniy, maqom xususiyatlarini hisobga olgan holda aloqa o'rnatish qobiliyati, vaziyatning o'zgarishiga faol javob berish qobiliyati, aloqani hisobga olgan holda qayta qurish. sherikning hissiy kayfiyatidagi o'zgarishlar, suhbatni o'tkazish, muhokama qilish, kelishuvlarga erishish, muloqot psixoterapiyasini o'tkazish uchun so'zdan foydalanish, muloqot nizolarini tahlil qilish.

O'qituvchining samarali kasbiy faoliyati uchun adekvat kommunikativ kompetentsiya darajasi quyidagi qobiliyatlardan iborat: muloqot qilish uchun kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini berish; kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, muloqot jarayonini dasturlash; muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish; turli xil psixologik masofalarda aloqa o'rnatish; psixologik pozitsiyalarni o'zgartirishda moslashuvchanlik va adekvatlik. E.A. Klimov o'qituvchining kommunikativ kompetentsiyasining asosiy xususiyatlarini aniqladi:

- rahbarlik, o'rgatish, tarbiyalash qobiliyati;
- tinglash va tinglash qobiliyati;
- keng dunyoqarash;
- nutq (kommunikativ) madaniyati;
- ongning ma'naviy yo'naltirilganligi, insonning his-tuyg'ulari, ongi va xarakterining namoyon bo'lishini kuzatish, uning xatti-harakati, uning ichki dunyosini aqliy ifodalash, modellashtirish, unga o'zini yoki boshqasini bog'lamaslik qobiliyati yoki qobiliyati;
- inson har doim yaxshiroq bo'lishi mumkinligiga ishonchga asoslangan shaxsga dizayn yondashuvi;
- empatiya;
- kuzatish;
- nostandart vaziyatlarni hal qilish qobiliyati;
- o'z-o'zini tartibga solishning yuqori darajasi [11, p. 374].

O'qituvchining kasbiy muloqot qobiliyatlari va qobiliyatlari quyidagilardan iborat: faol tinglash, fikr-mulohazalarni shakllantirish, xatti-harakatlarni tavsiflash, odamlarni o'ziga jalb qilish qobiliyati; mijozni masofada ushlab turish va hissiy yaqinlashuvdan qochish qobiliyati; mahorat sifatida empatiya; mijozning xulq-atvoridagi o'zgarishlarga hissa qo'shadigan strategiyalardan foydalanish qobiliyati, berilgan ob'ektlar va hodisalarga diqqatni jamlash, ularni ob'ektiv, adekvat aks ettirish qobiliyati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования.
2. Qo‘jaspirova G.M.: “O‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalash madaniyati” M.
3. Okon V.I. "O‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni" // Umumiy didaktikaga kirish // M., s. 164-178
4. Xoxlova O.A. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish // Maktabgacha ta'lim katta tarbiyachisining qo‘llanmasi. 3-son.
5. Mayer A.A. Maktabgacha ta'lim o‘qituvchisining kasbiy malakasi modeli / A.A. Mayer // Pedagogik menejment asoslari. 1-son.
6. Doniyorov, A., & Karimov, N. (2020). An incomparable book of a great scholar. Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research, (8), 63-71.
7. Omonov, Q., & Karimov, N. (2020). Importance Of Ancestral Heritage. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(09), 196-202.
8. Ziyamukhamedov, J. (2022). PU Sungling’s Creative Legacy as a Classic Example of Medieval Chinese Literature. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(1).

TEXNOLOGIYA FANI AMALIY MASHG‘ULOTLARIDA ROLLI VA ISHBOP O‘YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Mamadaliyeva Maxfuzaxon Yuldashaliyevna

*Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani
40-maktab texnologiya fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada o‘yinli texnologiyalardan foydalanib, dars jarayonlarini samarali o‘tkazishning didaktik imkoniyatlari keltirilgan. O‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta‘limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rol hamda ishbop o‘yinlarning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Tayanch tushunchalar: Rolli va ishbop o‘yinlar, didaktik maqsad, axloqiy sifatlar, materiallar, yo‘riqnomalar, bilim, ko‘nikma, tafakkur.

KIRISH

Ta‘limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta‘lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o‘quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish zarur. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog‘liq. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta‘lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish [1-30] hamda ta‘lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta‘lim tizimida ham o‘ziga xos o‘zgarishlarni kiritish va yangiliklarni joriy etish zaruratini belgilab bermoqda. Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o‘quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo‘lgan ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqishdir.

ASOSIY QISM

Ta‘lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil qilishning innovatsion usullaridan biri bu turli interaktiv o‘yinlarni dars jarayonlariga taqbiq qilishdir. Shu o‘rinda amaliy mashg‘ulotlarni qizg‘in tarzda namoyish qilishning usuli bu “Rolli va ishbop” o‘yinlardir.

“Rolli va ishbop” interaktiv o‘yini bu, qatnashchilarning tajribasini kengaytirish metodi bo‘lib, ularni kutilmagan vaziyatga duchor qilish orqali shu vaziyatda

qatnashchilardan kimningdir rolini ijro etish taklif etiladi, shu orqali vaziyatning mos intixosini topadigan metod ishlab chiqishga erishiladi. Rollar o'yini nazariyasi mashhur amerikalik tadqiqotchi Dj. Moreno aytganidek, "Role" so'zi lotincha rotula (kichik g'ildirak yoki g'o'la) so'zidan olingan bo'lib, keyinchalik pesaning aktyor uchun qog'ozga yozigan va dumaloq naycha qilib o'ralgan varaqdagi so'zlari edi. Faqatgina XVI-XVII asrga kelib bu so'z aktyorlar "Rolli va ishbop" yini ma'nosini anglata boshladi.

Rolli o'yinlar vaqtinchalik qatnashchining boshqa kishining rolini o'ynashni, yoki o'zini boshqa vaqt oralig'ida ko'rsatishini ko'zda tutadi. Kishi rolni qabul qilganidan keyin shu roldagi personaj kabi his qilishga, harakat qilishga va o'zini ko'rsatishga harakat qiladi. Boshqa qatnashchilar biron bir maqsad bilan rol o'ynayotganlarini kuzatadilar. Ishning bunday shakli turli maqsadlarda qo'llaniladi.

Ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda rolli hamda ishbop o'yinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqda. O'yin chog'ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganligi bois o'quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o'zlarining atrof - muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O'yinli faol faoliyat esa ularning ijodiy imkoniyatlarini oshirib, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli hamda ishbop o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi. O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. O'yin jarayonida namoyon bo'luvchi psixologik xususiyatlar har o'quvchiga shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy hayotda egallagan o'rnini barqarorlashtiradi, ularda o'z - o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko'nikmalarning malakalarga aylanishini ta'minlab qolmay, o'quvchilarda muayyan ahloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

O'yinni tashkil etish maqsadlari quyidagilardir:

- ta'limiy (didaktik) maqsad;
- tarbiyaviy maqsad;
- faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad; – ijtimoiy maqsad.

S.Kallaganning ta'qidlashicha, rolli o'yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilar:


- Jamoa a'zolari o'rtasida samimiy muhitni qaror toptirish;
- o'yin jarayonida qat'iy talablar qo'yilishini inkor etadi;
- o'qituvchi va o'quvchilarning erkin, bemalol, o'ziga ishongan holda, hotirjam harakat qilishlariga erishish;

- sinfda qulay sharoitning mavjud bo'lishi (shovqin darajasini nazorat qilish, o'quvchilarni chalg'ituvchi harakatlarni sodir etmaslik);
- sinfda tartib va tinchlikni saqlash maqsadida o'quvchilarning o'yin faolligiga ta'sir qilmaslik.

Ta'lim jarayonidagi o'quvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. O'quvchining faolligi, maqsadi yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O'quvchilarning faolligini ta'minlovchi, o'qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o'yini hisoblanadi. O'yin faoliyatiga qiziqish, o'quvchilarning o'z-o'zini ifoda etish, ro'yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta'minlanadi. O'yinning ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida ham rivojlanish ham o'rganish hisoblanadi. Pedagogik o'yin, o'qitishning aniq qo'yilgan maqsadi va unga tegishli pedagogik natija bilan belgilanadi.

Bu natijalar asoslangan va o'quv tayyorgarlik faoliyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik o'yinlarning blok sxemasi



Pedagogik o'yinlar o'yin uslubiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo'yicha; syujetli; ishbilarmonlik, imitastion, dramalashtirilgan o'yinlar. Oliy, O'yin O'ynash uchun olingan rollar yoki o'yin turi Tanlangan rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yinlar harakatlar muayyan predmet (jism)larni o'yinning shartli moddiy vositasi sifatida tanlash o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi real munosabatlar mazmuni shartli ravishda yaratilgan syujet (o'yin syujeti) o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimida foydalanadigan barcha pedagogik o'yinlar o'z mazmuniga ko'ra ishbilarmonlik o'yini hisoblanadi. Chunki ular, odatda ma'lum o'quv fani doirasida ishlab chiqiladi: rollar va syujetlar mavjud bo'ladi, turli vaziyatlar imitatsiya qilinadi.

Rolli o'yinlar - ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

Ishbilarmonlik teatri - qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni xattiharakati ishlab chiqiladi. Vaziyatning tafsiloti, ishtirok etuvchilarning vazifa va majburiyatlarini, maqsadlari ko'rsatilgan senariy tuziladi. Bu yerda, ma'lum shaxsning haqiqiy qiyofasiga kirib borish, uning xatti-harakatlarini anglash, vaziyatni baholash va to'g'ri xatti-harakatni tanlash, muhim hisoblanadi. **Psixodrama va sostiodrama** - bu rolli o'yinga, ishbilarmonlik teatriga o'xshagan bo'lib, faqat bu erda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishini ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi. Bu bosqich o'z navbatida ikki qismdan iborat: o'yinni ishlab chiqish, o'yinga kirishish. O'yinni ishlab chiqish - o'yin senariysini ishlab chiqish, yo'riqnomalar tuzish va moddiy ta'minotni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Ishbilarmonlik o'yini, senariysi quyidagilardan iborat: o'quv maqsadi; o'yin vazifasi, o'rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi.

O'yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:

- guruhni shakllantirish;
- mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;
- muammo va vaziyatni vujudga keltirish;
- rollarni taqsimlash,
- o'yin reglamentini o'rnatish;
- materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish; - maslahatlar berish.

“Ishbop o'yin” metodi - berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarni qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi. O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarni imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Ishbop o'yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarni belgilaydi. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruh xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

Quyida “Ishbop o'yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.

- O'yin shartlari va baholash mezonlari bilan tanishtirish;
- vazifalarni taqsimlash;
- vazifalar bo'yicha ishtirokchilar qaror qabul qiladilar;
- o'yinni amalga oshirish;
- muhokama qilish; baholash.

“Ishbop o'yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo'riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta'lim oluvchilarni o'yinning maqsadi, shartlari natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollari bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar.
5. Ta'lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o'yinni amalga oshiradilar. Ta'lim beruvchi o'yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O'yin yakunida ta'lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tainglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o'z vazifasini to'g'ri bajarishi, berilgan vaziyatda o'zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko'rsata olishi kerak.

TAYYORLASH BOSQICHI

1.1. O'yinni ishlab chiqish, senariyani ishlab chiqish, yo'riqnoma mazmunini ishlab chiqish, moddiy ta'minotni tayyorlash, guruhni shakllantirish.

1.2. O'yinga kirishish Rollar taqismoti Muammo va maqsadlarni vujuga keltirish shartlar, qoidalar, reglament o'rnatish, maslahatlar berish

O'TKAZISH BOSQICHI

Currently, in the educational process, the focus on the application of innovative technologies, interactive methods, pedagogical and information technologies to the educational process is an urgent topic. This article mainly focuses on the technologization of education, the role and importance of innovative educational technologies in the higher education system, and the technology of PLICKERS.

Keywords: innovative technologies, information technology, educational technologization, interactive style, Independent Education, PLICKERS technology.

Yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab-yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yurita oladigan qilib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan e'tibor dolzarb mavzuga aylangan. Bunga asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim texnologiyalari ular egallayotgan bilimlarni o'zlari mustaqil o'rganib, qidirib topishlariga, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. "Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan

axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoiniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shunga ko'ra, umumkasbiy fanlarni axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali tayyorlab, yoshlarning yanada bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga harakat qilish bugungi kunning dolzarb muammosi desak, xato qilmagan bo'lamiz"[1]

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati benihoya kattadir. Shuning uchun oliy ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, jamoatchilik asosida ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish, uni mustahkamlash asosiy masalalardan hisoblanadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu mustaqil o'rganib o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

Ta'lim texnologiyasi – bu mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtda belgilangan ta'limiy maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, muloqot, axborot, boshqaruv va o'qitishning eng qulay yo'l va vositalarining tartibli yig'indisi (ta'lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati); bu mavjud yuzaga kelgan ta'limiy jarayon sub'yektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta'lim berish texnologiyasining amaliyjarayon jihati) tartibi. [2]

Innovatsiya – yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati (inglizcha innovatsiya – kiritilgan yangilik, ixtiro). Ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek ularning turli sohalari va doiralarda qo'llanishini aks ettiradi.

Innovatsion (yangilik kiritish) ta'limni o'ziga xos xususiyatlari:

1. Oldindan ko'ra bilish, ya'ni, talabani avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo'ljallashga o'rgatishdan iborat bo'lib, talaba ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko'zlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur.

2. Talabalarning hamkorlikda ta'lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiyan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta'minlash.[3]

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda mustaqil o'rganib, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish uni amalga oshirishda, asosan, interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol texnologiyalar - bu o'qituvchi va o'quvchilarga joyni almashtirishga yordam beradigan usullar. Guruhlarda muloqot qilish, ma'lumotlar ustida ishlash, talabalar o'z-o'zini o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni kashf etadilar. Bu talabalar bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'ladigan, umumiy muammoni hal qilishda ishlaydigan faoliyatni yaratishga qaratilgan ish uslublari va usullarining butun majmuasidir.[3]

Interfaol texnologiyalar maktablarda seminarlar, bahs-munozaralar, muammoli ma'ruzalar, munozaralar orqali amalga oshiriladi, bunda o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishlari, o'z fikrini bahslashishni o'rganishlari mumkin.

Bugungi kun o'qituvchisi mustaqil o'rganib universal mutaxassis, ham o mustaqil o'rganib o'rgatuvchi, ham mustaqil o'rganib o'rganuvchi bo'lishi, ya'ni o'mustaqil o'rganib z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak. O mustaqil o'rganib qituvchilar zimmasidagi mas'uliyatli vazifani to'laqonli uddalash uchun ta'lim va tarbiyaning zamonaviy usullaridan keng foydalanishga harakat qilish zarur.

Dars jarayonlariga axborot komunikatsiya texnologiyalarini joriy etish talabalarning fan sirlarini puxta egallashlariga keng yo'l ochadi.Ularning dunyoqarashini kengaytirib,intellectual salohiyatini oshiradi. Ana shunday innovatsion texnologiyalardan biri bu PLICKERS dasturidir.[4]

Xorijiy davlatlarda ta'lim tizimiga mazkur dasturning tadbiiq etila boshlanganiga ancha bo'ldi. Mazkur dastur talabaning o'tilgan mashg'ulotlar va uyga berilgan vazifalarni chuqur o'zlashtirishiga keng imkoniyat yaratadi.Bu dasturning ta'lim jarayoniga tadbiiq etilishi har bir talabaning bilim darajasini sezilarli oshirish barobarida ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

E'tiborli tomoni shundaki, dastur nihoyatda sodda va qulay. Undan foydalangan o'qituvchi talabalar auditoriyasi bilan tezkor aloqani amalga oshirishga ega bo'ladi. PLICKERS dasturini dars jarayoniga tadbiiq etish alohida kompyuter sinfi yoki talabalarni boshqa jihozlar bilan ta'minlashga ehtiyoj tug'dirmaydi.Mashg'ulot o'qituvchining plansheti yoki mobil telefoni orqali boshqariladi. Bu o'quvchilar uchun ham juda qiziqarli. Chunki dars jarayonida berilgan savollarga kim tez va to'g'ri javob topishi kabi o'yin elementlari paydo bo'ladi.

Mazkur dastur bo'yicha dars o'tmoqchi bo'lgan o'qituvchi smartfon yoki telefoniga internet tarmog'idan PLICKERS mobil ilovasini yuklab olishi kerak.Ushbu ilovaning afzalligi shundaki, o'qituvchining planshetiga o'rnatilgan mobil ilova o'quvchilarga tarqatilgan qog'oz kartalaridagi QR (Quisk Response-inglizcha tezkor javob mazmunini anglatadi) kodlarni o'qiydi.O'qituvchi proyektori bo'lgan kompyuter

orqali o'quvchilarga savol yo'llaydi. So'rov oxirida uning natijasi ekranda paydo bo'ladi.[5]

PLICKERS texnologiyasidan foydalangan holda darslarni tashkil etish samarali natijalar beradi. Mazkur dastur bir vaqtning o'zida butun guruh talabalarining bilim darajasini aniqlab, guruhning umumiy o'zlashtirishini shaffof tarzda, o'sha daqiqaning o'zida ekranda namoyon etadi. Bu usul talabalrda katta taassurot qoldirib,dars jarayonida ularning faolligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turanova Iroda Oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish 217-bet
2. Pedagogik texnologiya: muammo va istiqbollar (zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari).Mualliflar uruhi./T.OOMQHTRM, 320-bet;
3. Ergashev R.N,Ergasheva G.M, Eshonqulova M.X. Boshlang_ich ta`lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi.-T.:Toshkent,2021.-119bet;
4. Ibragimov X.Abdullayeva Sh.Pedagogika nazariyasi.-T. ‖Fan va texnologiyal‖, 2008.-225-bet.
5. G.Dj.Tosheva B.B.Toirov Innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotining asosiy kuchi va tutgan o'rni.

**ТИББИЁТ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИ
МАНТИКИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ**

Зикиряева Манзура Мавлоновна

Аннотация: Мақолада тиббиёт олийгоҳлари психология фанини ўқитиш жараёнида бўлажак шифокорларнинг мантикий тафаккурини шакллантириш технологиялари самардорлигини илмий ҳамда экспериментал жиҳатдан асослаш ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: олий таълим, мантикий тафаккур, психология фани, педагогик мулоқот.

Аннотация: В статье рассматривается научно-экспериментальное обоснование эффективности технологий формирования мышления будущих врачей при преподавании психологии в медицинских вузах.

Ключевые слова: высшее образование, логическое мышление психология, педагогическое общение.

Abstract. The article discusses the scientific and experimental substantiation of the effectiveness of technologies for the formation of clinical thinking of future doctors when teaching gynecology in medical universities.

Key words: higher education, thinking, pedagogical communication.

Жаҳондаги етакчи олий таълим муассасалари ҳамда илмий тадқиқот марказларида педагогик мулоқот воситасида талабаларнинг мантикий тафаккурини ривожлантиришнинг креатив механизмларини амалиётга татбиқ этишга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Шунингдек, тиббиёт олий таълим муассасаси талабаларида мутахассислик фанларини ўқитиш жараёнида бўлажак тиббиёт ходимларида касбий фаолиятга муносабатни шакллантиришнинг рефлексив тизимини ишлаб чиқишга доир қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Мамлакатимизда ижтимоий соҳани жадал ривожлантириш, аҳолининг саломатлигини мустаҳкамлаш, бўлажак тиббиёт ходимларини тайёрлашнинг самарали механизмларини ишлаб чиқишга катта эътибор қаратилмоқда. Бўлажак мутахассисларнинг психология фанини ўқитишда касбий билим, малака ва тафаккурини замонавий технологиялар асосида ривожлантириш, уларда инновацион тафаккур ва салоҳиятни шакллантириш муҳим долзарблик касб этмоқда. Соғлиқни сақлашни ислоҳ қилиш давлат дастурлари амалга оширилиши натижасида юқори технологик ихтисослаштирилган тиббий ёрдам кўрсатишнинг принципиал жиҳатдан янги тизими ташкил этилди. Республикада ихтисослаштирилган тиббиёт марказлари,

шу жумладан, хирургия, кардиология, кўз микрохирургияси, урология, акушерлик ва гинекология, педиатрия, эндокринология, терапия ва тиббий реабилитация, дерматология ва венерология, фтизиатрия ва пульмонология соҳасида замонавий асбоб-ускуналар билан жиҳозланган ва юқори малакали врачлар билан тўлдирилган ихтисослаштирилган тиббиёт марказлари фаолият кўрсатмоқда. Ушбу марказларда фаолият кўрсатадиган юқори малакали мутахассисларни тиббиёт олийгоҳларида ўқиш давридаёқ тегишли психология, педагогика фанлари ўтилиб борилади. Бу эса, бўлажак тиббиёт ходимларида мантикий тафаккурни ривожлантиришнинг ижтимоий-педагогик хусусиятларини аниқлаштириш, компетенция воситасида тафаккурни ривожлантириш механизмларини ишлаб чиқишни тақозо этади. Тадқиқот мақсади – тиббиёт олийгоҳлари психология фанини ўқитиш жараёнида бўлажак шифокорларнинг мантикий тафаккурини шакллантириш технологиялари самарадорлигини илмий ҳамда экспериментал жиҳатдан асослаш.

Талабаларга психология фанини ўргатишда замонавий ахборот технологиялардан кенг фойдаланиб келинмоқда. Фаннинг мавзуларига хос слайдлар, роликлар, турли хил амалиётлар компьютерлар орқали талабаларга намойиш этилмоқда, албатта бу ҳолат ўқитувчилар назоратида амалга оширилади. Психология фанини ўқитиш жараёнида талабаларни ҳар томонлама юксалтириш, мустаҳкамлаш, мураккаб жараёнларни яққол тушуна олиш ва визуал қабул қилишни амалга оширишни ўргатиб, мустақил бажаришга талабалар ўз фикрлаш доирасини янада ривожлантириш, кенгайтириш ва бошқа турли хил янги маълумотларни олишга интилишига ундайди. Талабаларга маълумотларни етказиб беришда, техника ютуқларидан унумли фойдаланиш ёш авлодни мукамал қилиб тайёрлаш, компьютер технологиялардан ўз вақтида ва унумли фойдаланишнинг истиқболли томонлари кўзга кўринган. Ҳозирги кунларда, талабанинг мустақил ишлаши ўзи мустақил фикрлай олишини ошириш мақсадида олий ўқув юртларида талабалар мустақил ишига алоҳида катта аҳамият ажратилмоқда. Психология фанидан мустақил иши бажараётганда талабалар, мустақил ишни бажариш тартиб-талабларига риоя қилган ҳолда қуйидаги тартибда бажаришади. Талаба балларни тўплаш учун: Ўқитувчи томонидан тузилган вазиятли масалаларни ишлаши, ҳар бир талаба мустақил, индивидуал ёндошиши, мавзуга доир турли савол ва тестлар тузиши, мавзу танлаб унга доклад ва тақдимот тайёрлаб, гуруҳдошларига намойиш этиши, мавзунини ёритиш учун турли ўйинлар тайёрлаши, мавзуга таълуқли бўлган муляжлар ёрдамида беморни текширишни намойиш эта олиши, хулоса фикрини юритиши, интернет орқали янги маълумотларни йиғиб, киритган ҳолда исботлар ва мисоллар билан ёндошиши. Талабанинг тайёрлаган мустақил иши умумлаштирилади ва ўқитувчи томонидан баҳоланади. Шу турдаги олиб

бориладиган дарслар талабалар билимларини чуқур, мустаҳкам ўзлаштиришларига ёрдам беради ва талаблар ўтилган мавзуни мукамал эслаб қолишига ёрдам беради.

Талабалар видеороликлардан фойдаланган ҳолда амалий ва назарий жиҳатдан кўрган ва эшитган муолажаларини бажаришни мустақил фойдаланган ҳолда ўқитувчи ёрдами ва назорати остида бажариб, йўл қўйилган айрим хато ва камчиликлар жойида такрорий ҳолда бажариб бартараф этишга ҳаракат қиладилар. Бу ҳолат ўқитувчи кузатувида ва йўл қўйилган хатоларини тўғрилашлари билан амалга оширилади. Талабалар ўз амалий кўникмаларини компьютерда кўрган амалиётлари билан солиштирган ҳолда мукамаллаштирадилар.

Талабаларга психология ва педагогика фанини ўргатишда, замонавий педагогик технологиялардан бири ҳисобланган компьютер технологияси ўзининг афзалликлари билан ўз ўрнини тутди. Талабаларни тиббиёт соҳасида танлаган касблари қанчалик мурраккаб эканлигини кўзлари билан компьютер ёрдамида кўриб тушунишларига ёрдам беради, фанга бўлган қизиқишларини оширади, ижодий салоҳиятини юксалтиради, қизиқишлари ортади ва танлаган касбларини масъулиятини чуқурроқ ҳис қилишларини таъминлайди. Мультимедианинг қулайлиги шундаки, танланган мавзу бўйича тайёргарлиги бўлмаган талабада ҳам аниқ билим ва кўникмаларни ярата олади, ҳамда унутилган билимларни қайта тиклайди. Шулар билан бир қаторда маълумотларнинг узок муддат хотирада қолиши ва мустаҳкамланиши тасдиқланган. Бўлажак мутахассислар учун бундай маълумотларни хотирага ўчмас қилиб жойлаштириш усули бебаҳо ва долзарбдир. Шунинг учун олийгоҳларда ҳам амалий ҳам маъруза дарсларида мультимедиаларни қўллаш кенг йўлга қўйилган. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, дарс жараёнида инновацион технологияларни қўлланилиши бўлажак мутахассислар учун фаннинг умумназарий қисмларини, тузилиш қонуниятларини чуқурроқ тушуниш ва уларни тўлдира олиш имкониятларини кенгайтиради. Бунинг муҳимлиги шундаки, бу талабаларда мантиқий фикрлашни ривожлантиради. Бўлажак мутахассислар билимларини келажакда улар дуч келадиган вазиятлар билан боғлаш қанчалик эрта бошланса, шунчалик фойдали бўлади. Педагогика ва психология фанини ўқитиш жараёнида тиббиёт олий таълим муассасалари талабаларида мантиқий тафаккурни ривожлантиришнинг психологик-педагогик хусусиятлари сифатли касбий тайёргарлик омили сифатида шахсга йўналтирилган ёндашув орқали врач ва мижознинг ўзаро муносабатларининг инсонпарвар йўналганлиги, даволаш ишида оқилона қарорлар қабул қилишга доир онгли муносабатининг динамиклик жиҳатини тиббий педагогика билан интегративлигини таъминлаш орқали аниқлаштирилади.

Ўқув жараёнида талабаларда фикр юритиш, тафаккур қилишнинг ўзаро мустақам боғланган берк занжири вужудга келади.

Мустақил фикр юритиш жараёни қуйидаги босқичлардан иборат:

1. Мустақил фикр юритиш фаолиятида энг аввало ҳал қилиниши зарур бўлган муаммо инсон томонидан яхшилаб англаб (тушуниб) олиниши керак. Агарда инсон олдида ҳеч қандай масала ёки муаммо вужудга келтирилмаган бўлса, у ҳолда у бирон-бир нарса тўғрисида фикр ҳам юритмайди. Мушоҳада ҳам қилмайди. Инсон танбалликка мойил бўлади. Мабодо шахс ҳал қилиниши шарт бўлган масала юзасидан қанчалик аниқ ва тўлароқ маълумотга эга бўлса, уни оқилона ечиш йўли ва воситаларини шунчалик энгиллик билан топади. Муаммо ёки масалани ҳал қилиш учун энг зарур бўлган барча билимлар муҳим муносабатлар, урф-одатлар, боғланишларни яхши билиши ва уни татбиқ қила олиши зарур. Бунинг учун шахсий тажрибада учраган ҳолат, усуллардан ҳолатларни хотирада сақлаш ва уни ўхшаш муамолларни ечишда қўллаш жараёни амалга оширилади.

2. Масала ёки муаммога тааллуқли фараз илгари сурилади, босқичлар таҳлил қилинади, ечиш тўғрисида мулоҳазалар билдирилади. Турли йўллар ҳақида фикр юритилади, улар ўзаро қиёсланади ва энг самарали йўллар ажратилади. Муаммо олдида қўйилган гипотезани муайян мезонлар ёрдами билан текшириш зарурияти туғилади. Уни текшириш учун ўзаро ўхшаш ҳолатлар маънавий, шаклий, тузилмавий жиҳатдан таққосланади. Бу ўринда ижодий хаёл материалларидан атрофлича фойдаланилади, яъни ижодий режалар тузиш, умумлашма образлар яратиш, мақсад натижаларини кўз ўнгига келтириш, тахминий муносабатларни идрок қилиш амалга оширилади. Унинг ҳаққоний эканлигига ишонч ҳосил қилиш учун ақлий ҳатти-ҳаракатлартизими татбиқ қилиб кўрилади ва айрим ўзгаришлар киритиш мўлжали ойдинлаштирилади. Гипотеза мантикий усуллар ёрдамида фикран анализ ва синтез қилинади, муҳим аломатлари ажратилади, унинг тўғрилиги, ҳаққонийлиги бўйича тезкор ҳукм ва хулосалар чиқарилади.

3. Муаммони назарий жиҳатдан ҳал қилиш учун илгари сурилган гипотеза тўғрилиги ёки нотўғри эканлиги аниқланса, у фикр юритиш объектдан сиқиб чиқарилади ва янги фаразлар, ўйлар, тахминлар қабул қилинади ёки ўйлаб топилади. Янги амалий гипотеза фикран бир неча марта текширилади ва ундан сўнг амалиётга жорий қилиш учун синашга тавсия қилинади. Таъкидлаб ўтилган мулоҳазаларнинг аксарияти конструктив техник масалаларни ҳал қилиш, кашфиётларни яратиш, ихтирочилик таклифлари, рационализаторлик, технологик қурилмаларни жорий қилишда турли-туман вариантлар, технологик хариталар ва бошқа моделлар фикран таҳлил қилинади. Сўнгра улардан энг

маъқули, омилкори, энг мақсадга мувофиқи танланади ва унинг устида бош қотирилади.

4. Муаммо ва масалани ҳал қилиш, ечиш, олинган натижаларнинг тўғрилигига ишонч, қаноат ҳосил қилиш учун ечувчи шахс уни текшириш билан мустақил фикр юритиш ҳатти-ҳаракатларини якунлайди. Ана шу фикрий операциялар, мулоҳазалаш шаклларида сўнг масала (топшириқ) батамом ҳал қилинади ва бу муаммо тўғрисида ўйлаш нисбий жиҳатдан вақтинча тўхтатилади. Эришилган муваффақият ҳаётга жорий қилинади. Бошқача айтганда, бу муаммо ва унинг ечимини топиш учун қилинган ҳаракатлар ва ечимлар келгуси муаммоли вазиятни ҳал қилиш учун керак бўлади. Бу тажрибалар онгнинг хотирасида сақлаб қўйилади ва навбатдаги ҳаётий муаммоларни ечишда чуқур ўйлаш, мушоҳада қилиш, тафаккур савиясига мос, ҳаётий тажрибага таяниб ечим излаш ва уни орттирган ҳаётий тажрибалар билан қиёслаш, ундан кейингина ягона охирги хулосага келиш ва уни ҳаётда қўллаш каби берк, айланма тизим (система, механизм) ҳосил бўлади. Бу тизим чексиз давом этаверади. Ҳар бир шахс ўз ақл-идроқи, тафаккурнинг теранлиги, интеллектуал шаклланганлигига хос ва мос ҳолда муаммоларни ечади ва ҳаётга жорий этади. Маълумки, фаол билим олиш ва илмий изланиш фаолияти мустақил изланишларнинг барча турларидан унумли фойдаланишни талаб қилади. Талабанинг мустақил иши ўқув жараёнининг барча шаклларида намоён бўлмоғи зарур. Талаба мустақил ишининг асосий мақсади – ўқитувчининг раҳбарлиги ва назорати остида талабада муайян ўқув ишларини мустақил равишда бажариш учун зарур бўлган билим ва кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантиришдир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сонли қарори.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
3. Reneger S.L. All of us know more than each of us: cooperative learning in higher education // Active learning strategies in higher education. // JATER press, Szeged, 1997. –P. 47-48.
4. Содиков С.С. Олий математика фанидан талабалар мустақил ишларини ташкил қилишда инновацион технологияларнинг роли. // «Молодой ученый», 2016, № 12. -С. 90-92. <https://moluch.ru/archive/116/32111/> (дата обращения: 04.02.2019).

5. Усмонбоева М., Тўраев А. Креатив педагогика. Ўқув-услугий мажмуа. – Т.: ТДПУ, 2017. -12-б.
6. ОТМда мустақил таълимни ташкил этиш. // http://trif.uz/article_view.php.
7. Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков. АА Ахмедов, ММ Зиқиряева. Новый день в медицине.151-154, 1(29)2020
8. Madaniyatlararo tafovutlarning glaballashuv sharoitida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar. ММ Зикиряева. Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали 2 (3), 240-245, 2022/5/5
9. Shaxs psixologiyasida ranglarning egallagan o'rne xususida. Тафаккур ва талқин, 475-485, 2020/5/15
 10. Ўсмирлар хулқ-атворида ижтимоий қадриятлар шаклланишига таъсир этувчи омилларни методологик асослари. Зиқиряева.М М, Psixologiya 4 (4), 124-128, 4/2020
11. О методологии психологического образования. А.А Ахмедов, М.М Зиқиряева. Вестник интегративной психологии 19 (79), 63-67, 2019/9/3
12. Психологические особенности взаимоотношений мальчиков и девочек в младших классах. *Зиқиряева М.М. (г.Бухара, Узбекистан)* Вестник 24/2022 128-130с
13. Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков АА Ахмедов, ММ Зиқиряева. Новый день в медицине.151-154, 1(29)2020
14. Зиқиряева Манзура Мавлоновна, ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА КРЕАТИВЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ / URASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center / Volume 2, Issue 11, October 2022 / p. 926-931.
15. Талабалар касбий тафакқурини ривожлантиришда замонавий маъруза машғулотларининг аҳамияти. Гулноз Негматовна Курбанова. Биология и интегративная медицина. 2021
16. THE ROLE OF INNOVATIVE LECTURES IN THE IMPROVEMENT OF STUDENTS ' PROFESSIONAL THINKING. Kurbanova Gulnoz Negmatovna. Academicia. 2021/3.
17. International Journal for Advanced Research In Science. Kurbanova Gulnoz Negmatovna. 2020/5
18. Терминологический аппарат и методы экспертизы психологической готовности к инновационной деятельности, как основы развития инновационной компетентности: украинско-узбекский опыт. Курбанов И.Х. Журналнинг номи Педагогические инновации реали перспективы. 2019.

19. Психологическая готовность к инновационной деятельности-основная детерминанта профессиональной самореализации личности в условиях прогрессивных. Курбанов И.Х. Педагогические инновации идеи реали перспективы. 2019.
20. Психологическая готовность личности к инновационной деятельности основной ресурс инновационных преобразований в Узбекистане. Курбанов И.Х. Педагогічні інновації реалії, перспективи: збірник наукових праць. 2018.
21. Проблема формирования педагогического мастерства преподавателя вуза, типы преподавателей. Научные школы., Курбанов И.Х., Молодежь в науке и культуре XXI в., 2017
22. HIGH HUMAN FEELINGS IN RUDAKIS WORK., Tursunova Ozoda Faxriddinovna, Theoretical & Applied Science, 2020
23. Тексты с фоностилистическими фоновариантами и их перевод (на материале узбекского языка)., Бахтиёр Закирович Гафуров., Plim ha'mja'miyet., 2019
24. [Distinctive Rhetorical Models of Lexical and Grammatical Structure of The Uzbek Language.](#), Abdullayeva Dilorom Akhmedovna., Eurasian Scientific Herald., 2021/12/4
25. Ona tili darslarida o`quv lug`atlaridan foydalanish imkoniyatlari., Tursunova Ozoda., Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti.,2016/3
26. "Paronimlarning izohli lug`atini" tuzish xususida., Tursunova Ozoda., Til va adabiyot ta'limi., 2021/1
27. [Teaching Students to Think Creatively Through Independent Education in Higher Education.](#), Dilorom Abdullayeva, Bakhtiyor Aminov, Nilufar Xodjayeva., International Journal of Human Computing Studies., 136-140
28. [Russian Language as A Foreign Language in Medical Universities.](#), Khamrayeva Mavlyuda Djurayevna., Eurasian Journal of Research, Development and Innovation., 2021/12/13
29. [THE ORIGINALITY OF CASE FORMS IN RUSSIAN.](#), Khamraeva Mavlyuda Juraevna.,CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE., 2021/6/15
30. [STUDY OF RU.](#), Khamraeva Mavlyuda Juraevna.,

LOYIHAVIY KLASTERNI BOSHQARISHGA OID ILG'OR TAJRIBALAR

Ilmiy rahbar: Abduaxatov G'afurjon

Serikbayeva Aqmaral Xusanovna

*Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ta'lim muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya

Maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ta'limning interfaol shakllaridan foydalanish xususiyatlari ko'rsatilgan. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish dinamikasi aniqlandi. Ta'limning interaktiv shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish monitoringi olib borildi. Ta'lim amaliyoti va ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning interfaolli va samaradorligi ochib berildi.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim texnologiyalari, innovatsion klaster usuli, interfaol ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Abstract

In article, features of realization of innovative pedagogical technologies are considered. A feature specified of use of interactive forms of education. Dynamics revealed of introduction of innovative technologies is. The research conducted is of use of interactive forms of education and information and communication technologies. The interactive nature and effectiveness of use in educational practice and education of innovative technologies reveals.

Keywords: innovative educational technologies, innovative cluster method, interactive tutoring, information and communication technologies.

KIRISH

Ta'lim nuqtai nazaridan "Klaster" atamasining ma'nosi aniq belgilangan. Shunga qaramay mavjud ta'riflarning katta miqdori deyarli har doim ta'lim hamjamiyati tomonidan bir xil (va hatto turli ingliz va rus tilida so'zlashadigan atamalarning kontsentatsiyasi deyarli bir xil) tushuniladi. Innovatsion ta'limning xususiyatlari, ya'ni birlashma va qo'shma resurslardan foydalanish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot natijalari va sifatni yaxshilash uchun professional faoliyat ta'lim va umuman ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligi rivojlanishi uchun xizmat qiladi[3].

O'qitish texnologiyalarini takomillashtirishda innovatsiya va shunga mos ravishda innovatsion texnologiyalar nima ekanligini ko'rib chiqaylik. Shuni tushunish kerakki, innovatsiya barcha turdagi yangiliklarni yaratish bilan bog'liq va amalga oshirish jarayonidir. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish muhitida ma'lum bir usulni tadbiiq etilishi, sohasiga yangi narsaning kirib borishi, unga

joylashtirish va butun bir qator o'zgarishlarni yaratishni anglatadi. Innovatsion klaster usuli ish samaradorligini oshiribgina qolmay hamda boshqarish tizimini ham optimallashtiradi[11].

Oliy ta'lim muassasalarida klaster yondashuvini amalga oshirishning asosiy afzalliklari:

klaster ishtirokchilari, shu jumladan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda talabalar bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish; ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda jamiyatda zamonaviy hamkorlik mentalitetini shakllantirish;

- erkin axborot almashish, yagona axborot makonini shakllantirish;
- akademik yuksalish va ilmiy-tadqiqot jarayonlari ishtirokchilarining mobilligi (olimlar, magistrlar, talabalar almashinuvi ya'ni, yagona ta'lim makoniga birlashtirish) shakllantirish;

– mavjud bo'lgan eng sara ilmiy-tadqiqot ishlaridan unumli foydalanishni hisobga olish;

- ilmiy ishlar hajmini oshirish, ularni kengaytirish, ilmiy asoslarni tijoratlashtirishni rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarni amaliyotda taqbiq etish imkonini beradi[7].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muammolarga yechim izlashda, o'qitish metodikasini takomillashtirishda klaster usuliga murojaat qilinmoqda. Xususan, ta'lim klasteri pedagogikamizda integratsiya va uzluksizlik bilan bog'liq yangi innovatsion yo'nalish hamda uning amaliyotga tatbiq qilinishi pedagogik ta'limda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash omili ekanligi G'.I.Muhamedov, Sh.Q.Mardonov, Sh.Botirova, X.Sultonov, S.Toshtemirova, N.Koshanova, Q.Mahmudovlarning tadqiqotlarida muayyan darajada yoritilgan[1].

Innovatsion faoliyat keng ma'noda har qanday individual yoki jamoaviy faoliyatning o'zaro bog'liq turlari tizimini nazarda tutadi. Masalan: tadqiqot faoliyati hodisalarning tabiati haqida yangi bilim olishni nazarda tutadi va bu hodisani laboratoriyada qanday qilib qayta tiklash mumkin; mavjud ilmiy bilimlar asosida qanday qilib haqiqatda ma'lum funksiyalarni bajaradigan narsalarni olishingiz mumkinligi haqida instrumental va texnologik bilimlarni rivojlantirish bilan bog'liq loyiha faoliyati yoki ta'lim faoliyati, uning mohiyati loyiha yoki tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda bilim va tajribaga asoslangan shaxsning kasbiy rivojlanishida yuqori natijalarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi[8].

Ta'lim texnologiyasining mohiyati, uning yutuqlari bilan ta'lim sohasi xodimlarini xabardor etib borish, ularning bu boradagi malakalarini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish ham ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar zimmasidadir. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni

kunsayin oshib borayotgan axborot taʼlim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat koʻrsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga oʻrgatishdan iboratdir. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari umumiy metodologiyaning asosiy tamoyillari tizimida yangi hodisa sifatida uni dialektik mantiq va bilish nazariyasining kategoriya va tamoyillari tizimidagi evristik imkoniyatlar darajasiga olib chiqadi[12].

TAHLIL VA NATIJALAR

Klaster usuli ko'p o'lchovli tahlilning xususiyatlarini tasniflash va aks ettirishda eng aniq usullardan biri hisoblanadi. Klaster tahlili quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Tipologiya yoki tasnifni ishlab chiqish;
- Foydali kontseptual guruhlash sxemalarini yaratish;
- Maʼlumotlarni oʻrganish asosida gipotezalarni yaratish;
- Gipotezani tekshirish yoki aniqlash uchun tadqiqot u yoki bu tarzda ajratilgan turlar (guruhlar), haqiqatdan ham mavjud ekanligini tahlil qilish [9].

Oʻrganish mavzusidan qatʼiy nazar, klaster tahlilini qoʻllash quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

Klasterlash uchun namuna tanlashni;

Bir nechta oʻzgaruvchilarni aniqlashni;

Oʻzgaruvchilar toʻplamini aniqlashni;

Obʼyektlar oʻrtasida oʻxshashlik (yoki farq) oʻlchovlarining qiymatlarini hisoblashni;

Guruhlarini yaratishda klaster usulini qoʻllash orqali tahlil qilishni;


Klaster yechimi natijalarini tekshirish.

Klaster usulida talaba yoki oʻquvchi izlanishga majmur boʻladi, sababi ketmaket mavzuga doir sozʼlarni yozish uchun ham nimanidir bilish talab etiladi[4]. Demak, ushbu usul talaba yoki oʻquvchini mustaqil oʻqishga undaydi. Klaster usulining boshqa usullardan afzalligi shundaki, mavzuga doir barcha bilimlar bir tutam qilib yigʻiladi, shu tutamga qarab, mavzu ochib beriladi. Quyida klaster usulini amalga oshirish uchun nimalarga eʼtibor berish lozimligi koʻrsatilgan.

Klasterni tuzish qoidalari bilan tanishadi. Sinf doskasi yoki kata qogʻoz

varagʻi markazida kalit soʻzlardan iborat mavzu nomlanishi yoziladi.





Oliy taʼlim muassasalarida oʻqitish texnologiyalarini klaster usuli usuli yordamida takomillashtirish sizga juda katta hajmni koʻrib chiqishga imkon beradi.

Katta hajmdagi axborotni keskin qisqartirish, olingan natijalarni ixcham va aniq taqdim etadi. Klaster usulini amalga oshirish uchun tahlil tizimi mamlakatimizda jadal surʼatlarda shiddat bilan odimlamoqda[2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni taʼkidlashni istardimki, taʼlim hech qachon yakka holda emas balki uni olimlar, magistrlar, talabalar birgalikda rivojlantiradilar. Jamiyatning, mamlakatning, dunyoning rivojlanishi mavjud ijtimoiy holatga bevosita taʼsir qiladi. Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshirish tartibi, mexanizmlari oliy taʼlim muassasalariga borib taqaladi. Oliy taʼlim muassasalari ilmiy taraqqiyot va fan birgalikdagi rivojlanishi uchun poydevor qoʻyadigan asoslardan biridir. Klasterni amalga oshirish sifati uchun masʼuliyat oliy taʼlim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ilmiy xodimlarning har birining zimmasiga tushishini eslatishimiz zarur. Klaster usulida tahlil juda qulay koʻp sonli nomutanosiblikni idrok etishni osonlashtiradigan vosita boʻlib xizmat qilishini taʼkidlash joiz.

REFERENCES

1. Boymurodov, A. X., Azimqulov, S. N., & Davlatova, A. R. (2021). ZAMONAVIY TAʼLIM TIZIMI AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1389-1395.

2. Boymurodov, A. X., Azimqulov, S. N., & Davlatova, A. R. (2021). ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMI AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(11), 1389-1395.
3. Raxmatov, F. A., Nursaidov, N. Y., & Azimqulov, S. N. (2019). TIBBIYOT AXBOROT TIZIMLARIDA HUIJAT ALMASHISH JARAYONINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI TAHLILI. AXBOROT KOMMUNIKACIYA TEXNOLOGIYALARI VA DASTURIY TA'MINOT YRATIPIIDA INNOBACIION GOYIAP, 1(41), 196-198.
4. Seytov, A.J., Khurramov, A.J., Azimkulov, S.N., Sherbaev, M.R., Kudaybergenov, A.A., & Khasanova S.Kh. (2021). Optimal control of pumping station operation modes by cascades of the Karshi main canal. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 8(4), 17177-17185
5. Azimqulov, S. N. (2021). HUDUDIY TA'LIM SOHASIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O.,QITISH METODIKASINI KLAS TER USULI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH. TABIIY FANLARNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROTKOMMUNIKACIYA TEXNOLOGIYALARINING O.,RNI,3(8), 191-195.
6. AZIMQULOB, C. (2021). TA'LIM JARA'ENINI INNOBACIION PEIACOGIK TEXNOLOGIYA ACOSIDA TASHKIL KILIPIIDA QUILLANILADIGAN U'QITIPI USUL VA TEXNOLOGIYALARI. U'ZMU XABARLARI, 2(1), 54-57.
7. Azimkulov, C. N. (2021). KLAS TERNIY PODXOD I EGO ISPOL'ZOVANIE B NAU'NO- PEIACOGICHESKIX ISSLEDOBANIYAX. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(2), 826-861.
8. Azimqulov, S. N. (2020). ZAMONAVIY TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI. TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALRIDAN FOYDALANISHNING INNOBACIION USULLARI, 4(44), 124-126.
9. Kuralov Y. A. (2020). Development Of Geometric Creativity Of Secondary Scholl Students By Computer. *International Journal of Scientific & Technology Research - (IJSTR)* Volume-9 Issue-2, February 2020 Edition, 4572-4576.
10. Kuralov Y. A., Makhmudova, D. M. (2020). METHODOLOGY OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE IN STUDENTS WITH PROBLEMATIC EDUCATION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 8 No. 4, 2020, Part II ISSN 2056-5852, 142-146.

11. Akhmedov B. A., Majidov J. M., Narimbetova Z. A., Kuralov Yu. A. (2020). Active interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79), 805-808.
12. Kuralov Y. A., (2021). Elektron raqamli imzo algoritmlarining qiyosiy tahlili (RSA, ELGAMAL, DSA). Academic Research in Educational Sciences, 2(5) 428438.
13. Sultanov, R. O., Yusupov, M. R. (2020). Ta'limda matematika fanini o'qitishdagi muammolar va ularning yechimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati. O`zMU xabarlar, 2(1/2/1), 144-147.
14. Султанов, Р. О. (2020). Idea блокли шифрлаш алгоритмини такомиллаштириш методлари. Academic Research in Educational Sciences, 1(3), 397-404.
15. Жўраева, Н. В., Султанов, Р. О., Абдуллаева, С. А., Рахимжонова, В. А. (2020). Systematization of word combinations in the uzbek language. Наука и Мир, 2(6), 65-68
16. Kamolov, E. R., Raximov, S. M., Sultanov, R. O., Maxmudov, M.A., (2021). Innovative method of developing creative thinking of students. Экономика и социум, 1(80).
17. Sultanov, R., Xalmetova, M.(2021). Ikki g`ildirakli transport robotlari harakatini dasturlash. Academic Research in Educational Sciences, 2(2), 108-114.
18. Хуррамов, А.Ж., Ражабов, О.Т., Султонов, Р.О.,(2021). Ta`lim jarayonida animatsiya va kompyuter grafikasidan foydalanish. Academic research in educational sciences, 2(11), 1382-1388.
19. Sultanov, R.O., (2021). O`qitishning raqamli texnologiyasi masalalari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 3), 804-807.

AHOLI HAYOT FAOLIYATINI MUHOFAZA QILISH HAMDA FAVQULODDA HOLATLAR JARAYONIDA HARAKAT QILISH

Nuriddinov Axmad Muxammadiyevich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya

Maqolada aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tizimining shakllanish bosqichlari, faoliyati bilan bog'liq amalga oshirilgan islohotlarning bosqichlari hamda jarayonlari, shuningdek tizimning kelgusidagi takomillashtirish istiqbollari belgilash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: favqulodda vaziyat, oldini olish, harakat qilish, bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, vakolatli organ, davlat tizimi, boshqaruv organlari, funksional va hududiy quyi tizimlar, favqulodda vaziyatlar vazirligi.

Abstract

The article describes the stages of formation of the system for protecting the population and territories from emergency situations, eliminating the consequences of emergency situations, the stages and processes of the implemented reforms related to its activity, as well as the issues of determining the prospects for the future improvement of the system.

Keywords: emergency situation, prevention, action, elimination, civil protection, authorized body, state system, management bodies, functional and territorial subsystems, The Ministry of Emergency Situations.

Kirish

O'zbekiston o'z mustaqilligi va suverenitetini qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, mamlakatimiz aholisi va hududlarini tabiiy ofatlar, texnogen falokatlardan muhofaza qilish bo'yicha ishonchli va samarali milliy tizimni yaratish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Aholini xavfsizligi va muhofazasi davlat siyosatining asosiy tamoyili etib belgilandi. Mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyot obektlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, respublikada tabiiy va texnogen tisdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida tashkil etilgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi zimmasiga – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimini tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash vazifasi yuklandi. Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishda yuqori samarali va xavfsiz texnologiyalarni, mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullarini tadbiiq etish va shu bilan

birgalikda ushbu soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni talab qiladi. Ularning sanoat korxonalarida xavfsiz mehnat qilishlarini ta'minlash ularga sog'lom mehnat sharoitlarini yaratish, jarohatlanish va kasb kasalliklarining oldini olish usullarini o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida" 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabr kunidagi 754-sonli "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorining 4-bandida belgilangan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan holda hayotiy faoliyat xavfsizligi va fuqaro muhofaza yo'nalishlaridagi o'quv dasturlarini ta'lim yo'nalishlari uchun zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarini favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorlanganlik darajasini oshirish talab etiladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanlarni o'itish ta'lim va tarbiyaning uzviylikiga birligiga asoslanib, ushbu fan talabalarga mehnatni havf-xatarsiz bajarish usullarini o'rgatishdan, ya'ni har bir sharoitda baxtsizlikni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan omillarni oldindan seza olish va ularni sodir bo'lmasligini ta'minlovchi muxandislik tadbirlarini ishlab chiqish va tadbir etishga o'rgatishdan iboratdir. Oliy ta'lim muassasalarida mehnat muxofazasi fanini o'qitish masalalari 2016 y 22-sentabrda «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (yangi tahriri) da 17-moddasida Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarning tayyorlanishi belgilangan tartibda ta'minlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimiz hududida ko'plab yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning ayrimlari atrof muhit va aholi uchun potentsiyal xavf hisoblanadi. Bu korxonalarining ba'zilaridagi texnologiyalarning nazorat va tartib intizomni past darajasi ishlab chiqarish ko'rsatkichiga ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bular natijasida bu korxonalariga investesiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish vositalarini yangilashda muammolar yuzaga kelib va iqtisodiy holat yanada nochorlashadi.

Bu o'z navbatida xavflardan insonni himoyalashni nafaqat samarali tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni shu bilan birga hayot faoliyat xavfsizligini taminlashga ma'lum darajada mablag' sarf etilishini taqozo etadi. Statik ma'lumotlarning qayd etishicha ishlab chiqarishdagi avariyalarni 50 % dan ortig'i texnik xodimlarning noto'g'ri harakati natijasida sodir bo'ladi. Amerikalik tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra faqatgina AQShning o'zida yiliga yo'l transporti hodisasidan har 10 ming nafardan 3 tasi, zaharlanishdan har 100 ming nafardan 2 tasi, yong'indan kuyishdan har 100 ming nafardan 4 tasi, yashin urishdan har 10 mln nafardan 5 tasi, ishlab chiqarish vositalarining nosozligidan har 100 ming nafardan 1 tasi va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlar natijasida har 100 ming nafardan 4 tasi inson o'limi bilan tugamoqda. Yaqin Sharq, Bolqon bo'yi, Sharqiy Afrika mintaqalarida siyosiy va harbiy to'qnashuvlar natijasida, Fukusimo, Chernobil, Chad ko'li, Orol dengizi va Orol bo'yi ekologik inqirozli hududlardan aholi migrasiyasining jadallashuvi kuzatilmoqda. Aksariyat hollarda bunday jarayonlar qurboni bo'lib yoshlar va ular ta'lim olayotgan muassasalar chiqmoqda.

Bunday baxtsiz hodisalar yurtimizda ham uchrab turibdi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga qaraganda 2019 yil davomida O'zbekiston ish joylarida 574 ta baxtsiz hodisa sodir bo'lgan. Buning oqibatida 649 kishi turli darajada jabrlangan .

2019 yili O'zbekistonning turli hududlarida ish vaqtida sodir bo'lgan turli xil baxtsiz hodisalar oqibatida 199 kishi hayotdan ko'z yumgan. Jami 574 ta baxtsiz hodisada 440 kishi og'ir va 10 nafari yengil tan jarohati olgan. Viloyatlar kesimida tahlil qilinsa, 2019 yili bunday fojialarda halok bo'lganlar soni 2018 yilga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida 4 nafarga, Buxoro va Xorazm viloyatlarida 5, Navoiy viloyatida 6 hamda Toshkent shahrida 15 nafarga ortgan.

Davlat mehnat inspeksiyasi ma'lumotiga qaraganda 2020-yilda ishlab chiqarish jarayonlarida baxtsiz hodisalar 607 tani tashkil etganini, bu esa 2019-yilga nisbatan 33 taga ko'pligini ma'lum qildi. Buning Oqibatda 693 nafar xodim jabrlangan, shundan 201 nafari halok bo'lgan, 457 nafari og'ir va 35 nafari yengil tan jarohati olgan . Bu esa ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan kelib chiqadigan iqtisodiy yo'qotishlar global miqyosda jahon YaIMning 4-6 foizini tashkil etyapti. Bu iqtisodiy rivojlanish uchun ko'rsatiladigan rasmiy yordamdan 20 baravar ko'p deganidir

Demak ishlab chiqarish bilan bog'liq fojialarning ayrim sabablarini ko'rsatib o'tamiz.

- ishchi-xodimlarni ishga jalb qilishda xavfsiz mehnat usullariga o'qitilib, yo'lyo'riqdan o'tkazilmagan shaxslarni ishga qo'yilganligi, yo'riqnomalarga rioya etmaslik, nazorat yo'qligi, xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazmaslik va sanitariya-maishiy

sharoitlar yaratilmaganlik holatlari mavjudligi; qurilish loyiha hujjatlariga va ishlab chiqarish texnologik talablariga amal qilmaslik, xodimlarning mehnati noto'g'ri tashkil qilinganligi;

XULOSA

Respublikamizda yuz berishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar va boshqa turdagi oqibatlari noxush voqealarni kamaytirish va oldini olish uchun, qiyidagi tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshiris maqsadga muvofiqdir:

-ishchi-xodimlarni huquqiy savodxonligini maqsadli tayyorlangan bukletlar tarqatish evaziga oshirib borish;

- ish beruvchilarga mehnatni muhofaza qilish qonunchilik asosida talab etiladigan hujjatlardan namunalar va ularni to'ldirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish va tarqatish;

-ishlab chiqarish korxonalarida kamida har olti oyda bir marotaba mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni ta'minlash borasida jamoaviy seminar va treninglarni tashkil etib borish;

-korxonalarda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi burchaklarini tashkil etib, unda Respublikamizda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar haqida ma'lumotlar yoritib borish lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida»gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining «Volontyorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida» 1996 yil 4 martdagi PF-1378-son Farmoni
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 iyundagi PF-5066-sonli Farmoni
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida»gi 2019 yil 10 apreldagi PF-5706-sonli Farmoni

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Favqulodda vaziyatlar tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019 yil 10 apreldagi PQ-4276-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2021 yil 16 avgustdagi 1293-V-sonli Qarori
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida”gi 1996 yil 11 apreldagi 143-sonli Qarori
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 2010 yil 5 yanvardagi 2-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 2014 yil 9 iyuldagi 184-sonli Qarori
14. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-2021 yillarda “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”.<http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/>
15. Bobojonov R.D., Ibragimov E.I. Hayot faoliyat xavfsizligi. /Ma'ruzalar matni to'plami. Toshkent, TIQXMII, 2010
16. <https://kun.uz/73637185>
17. <http://metmash.kasaba.uz/ishlab-chiqarishdagi-bahtsiz-hodisalar-va-kasbkasalliklarini-oldini-olish-mumkin>

TYPES OF ABBREVIATIONS IN THE KARAKALPAK LANGUAGE

Berdimuratov Bakhtiyar

*Intern-teacher of the Department of English linguistics
Karakalpak State University*

Abstract. This study is dedicated to investigate peculiarities of abbreviations in the Karakalpak language. It is also aimed to find out new types of abbreviations and identify their classifications due to the fact that languages are developing day by day and more and more abbreviations are being made and used in different fields.

Keywords. Abbreviations, types, Karakalpak language, derivation, compound words.

Introduction. Abbreviations are a common part of our lives, they save us time and space in our written communication. In other words, almost anything you want to do, from official documents to text messages, will require you to know an abbreviation. Abbreviation has a high degree of productivity in modern languages, especially in official-business, scientific and technical styles, because it is aimed at increasing regulation and orderliness [1]

